



SHAYBONIYLAR DAVLATI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19005934>

Shorasulova SH.B.

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika
universiteti Tarix fakulteti 5-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada XVI–XX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklari diplomatik aloqalarining manbashunoslik va tarixshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilishi haqida so'z yuritilib, Shayboniylar davri Buxoro xonligi tarixiga oid manbalar, elchilik aloqalari va diplomatik munosabatlar tarixiga oid ayrim ma'lumotlar yoritib berilgan. Shuningdek, Buxoro xonligi tarixiga oid manbalarning qiyosiy tahlili amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo xonliklari, diplomatik aloqalar, tarixnavislik, elchilik munosabatlari, Shayboniylar davlati, Buxoro xonligi, xalqaro munosabatlar, manbashunoslik tahlili.

HISTORICAL ASPECTS OF THE SHAYBANID STATE'S DIPLOMATIC RELATIONS

Shorasulova SH.B

*5th-year student of the Faculty of History,
Nizami Tashkent State Pedagogical University*

Abstract: This article examines the study of diplomatic relations of the Central Asian khanates from the 16th to the beginning of the 20th centuries through the prism of source studies and historiography. It highlights specific data regarding the history of the Bukhara Khanate during the Shaybanid period, including embassy ties and diplomatic interactions. Furthermore, the author provides a comparative analysis of primary sources related to the history of the Bukhara Khanate.

Keywords: Central Asian khanates, diplomatic relations, historiography, embassy relations, Shaybanid state, Bukhara Khanate, international relations, source analysis.

KIRISH

Shayboniylar davlati o'z mohiyatiga ko'ra yirik davlat bo'lib, oliy hokimiyat cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan davlat boshlig'i - xon tomonidan

boshqarilgan. Xonlik chegarasi Qashqardan Orol va Kaspiy dengizlari sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan Xurosonning sharqiy qismigacha bo'lgan



yerlarni qamrab oldi. Bu davrda sug'orish inshootlari, karvonsaroylar, madrasalar, ko'priklar qurildi. Hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-fan, madaniy va elchilik aloqalari rivojlandi. Pul zarb qilish yo'lga qo'yildi. Xonlikning siyosiy tizimida, boshqaruvida Amir Temur va temuriylar davrida qaror topgan tartib qoidalar, xususiyatlar bilan birga ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga xos an'analar ham mavjud edi. Davlat boshqaruvida islomiy shariat va odat qonun qoidalariga amal qilingan.

O'rta Osiyo xonliklari diplomatik aloqalarining tarixnavislikda yoritilishi masalasi milliy davlatchilik tarixini chuqur anglash, tashqi siyosat institutlarining shakllanish jarayonini ilmiy asosda baholash hamda tarixiy manbalar evolyutsiyasini aniqlash nuqtai nazaridan muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. XVI asrdan boshlab mintaqada shakllangan siyosiy tuzilmalar o'z tashqi siyosatini muayyan diplomatik mexanizmlar orqali amalga oshirgan bo'lib, bu jarayon saroy tarixchiligi va keyingi davr tarixnavisligida turlicha talqin qilingan [1. 12-18].

Shayboniylar davrida siyosiy hokimiyatni mustahkamlash bilan bir qatorda tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish, qo'shni davlatlar bilan muzokaralar olib borish va elchilik almashinuvini tashkil etish davlat boshqaruvining muhim yo'nalishiga aylangan. Bu jarayonlar saroy muhitida yaratilgan tarixiy asarlarda hukmdor faoliyatining ajralmas qismi sifatida tasvirlangan. Ayniqsa, safaviylar bilan siyosiy-diniy qarama-

qarshilik va mintaqaviy ta'sir doirasini kengaytirish harakatlari diplomatik vositalar bilan ham olib borilgani qayd etiladi [2.30-33].

Adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyo xalqlari dunyo xalqlari orasida o'zining boy va qadimiy tarixiga ega xalqlardan sanaladi. Bu xalqlarning tarixi va unda sodir bo'lgan barcha jarayonlar shu xalqlarning vakillari tomonidan yozib qoldirilgan turli mazmundagi minglab manbalarda aks ettirilgan. Ayniqsa, O'rta Osiyoning XIII asrdan boshlab keyingi yuz yilliklar davomidagi tarixi, davlatchiligi, iqtisodi, etnik va madaniy-ma'naviy sohalardagi jarayonlarini yoritib beruvchi tarix asarlari va ularning yaratilishi, tarixnavislik xususiyatlari o'ziga xos maktablarning shakllanishini ta'minlab berdi. Qo'qon tarixnavislik maktabi, Toshkent tarixnavislik maktabi, Buxoro xonligi va amirligi davrida yaratilgan tarixiy asarlar, Xorazm tarixnavisligi shular jumlasidandir. O'rta Osiyoda 3 ta mustaqil davlat - Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining vujudga kelishi bilan, XVII-XIX asrlarda mazkur davlatlar tarixiga bag'ishlab alohida - alohida asarlar yaratildi. O'ziga xos uslub va an'alarga ega bo'lgan tarixnavislik maktablari shakllandi. Buxoro va Xiva xonliklari tarixi Abulg'azi Bahodirxonning «Shajarayi turk» va «Shajarayi tarokima», Muhammad Amin Buxoriy, Muhammad Sharif, Mirzo Shams Buxoriy, Munis, Ogahiy, Bayoniy asarlarida keng yoritilgan. Shuningdek, bu davr tarixini yoritib beruvchi bir qator manbalar tarjima qilinib, nashr etilganki,



ular yordami Shayboniylar va ashtarxoniylar davri tarixini chuqurroq o'rganish imkoni yuzaga kelgan. Jumladan, nashr etilgan bunday manbalar qatorida Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma", Mirzo Abdulazim Somiy "Tarixi salotini mang'itiya", Abdurahmon Tole'ning "Tarixi Abulfayzxon" asarlarini ko'rsatib o'tish mumkin [8.7-8]. Bu davrda Buxoro xonligi Xiva xonligi hamda Rossiya davlatlari bilan ham faol diplomatik aloqalar olib borganligini manbalarda o'z aksini topgan. Rossiya va Buxoro xonligi hukmron doiralari o'rtasida olib borilgan diplomatik hujjatlar hamda mahalliy tarixchilarning qo'lyozma asarlarida keltirilgan materiallar asosiy manbalarda berilgan materiallarni ko'pgina faktik dalillar bilan to'ldirib, Rossiya va Buxoro xonligi munosabatlarini o'rganishda yordamchi manba bo'lib xizmat qiladilar [7.9-10].

Buxoro xonligi tarixiga oid manbalarda diplomatik faoliyat savdo yo'llari, hududiy barqarorlik va siyosiy ittifoqlar kontekstida yoritiladi. Buxoro Movarounnahrning siyosiy va ma'naviy markazi sifatida xalqaro aloqalarda vositachi va muvofiqlashtiruvchi rol o'ynaganligi ta'kidlanadi [3.45-49]. Yevropa mualliflari, jumladan Vamberi, Buxoroning geosiyosiy ahamiyatini alohida qayd etib, uning Rossiya va Eron bilan aloqalarini mintaqaviy raqobat doirasida baholaydi [4.78-82]. XVIII-XIX asrlarga kelib Qo'qon xonligi tashqi siyosatida diplomatik muvozanat saqlash strategiyasi ustuvor ahamiyat kasb etgan.

Elchilik missiyalari, savdo bitimlari va chegaraviy kelishuvlar siyosiy mustaqillikni saqlab qolishning muhim vositasiga aylangan. Diplomatik marosimlar va elchilik institutlari davlat suverenitetining ramziy ifodasi sifatida shakllangan [1.102-110].

Shuningdek, numizmatik materiallar diplomatik va iqtisodiy aloqalarni tadqiq etishda muhim manba vazifasini bajaradi. Tangalar zarbi hukmdor nomi va siyosiy hokimiyatni tasdiqlash bilan birga, savdo yo'llari va xalqaro iqtisodiy aloqalar ko'lamini aniqlash imkonini beradi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati ta'sirida xonliklar diplomatik faoliyatining talqini o'zgardi. Imperiya tarixnavisligida xonliklar tashqi siyosati zaif va beqaror tizim sifatida talqin qilingan bo'lsa, zamonaviy o'zbek tarixshunosligi ushbu jarayonlarni milliy davlatchilik konsepsiyasi asosida qayta baholamoqda. [5.120-132]. Shu bois mazkur maqolaning maqsadi XVI-XX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklari diplomatik aloqalarining tarixnavislikda qanday yoritilganini manbashunoslik va tarixshunoslik jihatidan tahlil qilish, turli davr mualliflari talqinlarini qiyosiy asosda baholash hamda diplomatik institutlarning evolyutsiyasini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism. XVI asrda Shayboniylar davlati tashkil topishi bilan Movarounnahrda markazlashgan siyosiy tuzilma qaror topdi va tashqi aloqalar davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Shayboniylar davrida



diplomatik faoliyat harbiy yurishlar bilan bir qatorda olib borilgan bo'lib, qo'shni davlatlar bilan siyosiy yozishmalar, elchilar almashinuvi va sulh muzokaralari amaliyotda qo'llanilgan. Saroy tarixnavisligida hukmdorning siyosiy salohiyati va diplomatik muvaffaqiyatlari alohida ta'kidlanadi, bu esa diplomatik institutlar davlat hokimiyati tizimining tarkibiy qismi sifatida shakllanganini ko'rsatadi [2.22–27].

Shayboniylar davrida Safaviylar bilan olib borilgan munosabatlar nafaqat harbiy qarama-qarshilik, balki siyosiy-diniy legitimatsiya masalasi bilan ham bog'liq edi. Diplomatik yozishmalar orqali mintaqaviy ustunlikni asoslash, hukmdor maqomini mustahkamlash va ittifoq masalalarini muhokama qilish amaliyoti kuzatiladi. Bu jarayonlar saroy muhitida yaratilgan tarixiy asarlarda ideallashtirilgan bo'lsa-da, ular real diplomatik mexanizmlarni anglash imkonini beradi [6.88-96].

Buxoro xonligi davrida diplomatik aloqalar savdo-iqtisodiy manfaatlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlandi. Movarounnahrning markaziy hududi sifatida Buxoro xalqaro savdo yo'llarini nazorat qilgan va shu orqali tashqi siyosiy aloqalarni muvofiqlashtirgan. Manbalarda elchilik marosimlari, siyosiy kelishuvlar va qo'shni davlatlar bilan murosaviy aloqalar haqida ma'lumotlar keltiriladi.

XVIII asrga kelib mintaqada siyosiy kuchlar nisbatining o'zgarishi diplomatik faoliyatning yangi bosqichini boshlab berdi. Qo'qon xonligi tashqi siyosatida diplomatik muvozanat strategiyasi

ustuvor bo'lib, Rossiya, Buxoro va Xitoy bilan olib borilgan munosabatlarda elchilik missiyalari muhim vosita vazifasini bajardi. Chegaraviy kelishuvlar va savdo bitimlari siyosiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan edi. XIX asr oxirida Rossiya imperiyasining mintaqaga kirib kelishi bilan xonliklar diplomatik faoliyati cheklangan shaklga o'tdi. Imperiya ma'muriy tizimi o'rnatilishi natijasida tashqi siyosat markazlashgan nazorat ostiga olindi. Bu davr tarixnavisligida xonliklar diplomatiyasi ko'pincha zaif va tizimsiz sifatida tasvirlangan bo'lsa-da, zamonaviy tadqiqotlar diplomatik institutlarning tarixiy ildizlari va amaliy mexanizmlarini qayta baholamoqda [5.120-132].

Numizmatik materiallar esa diplomatik va iqtisodiy aloqalarni aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Tangalar zarbi hukmdor suverenitetini bildirgan hamda savdo aloqalarining geografiyasini ko'rsatgan. Bu esa diplomatiya faqat siyosiy muzokara emas, balki iqtisodiy manfaatlar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lganini tasdiqlaydi. Shunday qilib, XVI–XX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklari diplomatik aloqalari tarixnavislikda turli mafkuraviy va metodologik yondashuvlar asosida yoritilgan. Saroy tarixchiligi hukmdor shaxsini markazga qo'ygan bo'lsa, XIX asr mualliflari geosiyosiy manfaatlar prizmasida baholagan. Zamonaviy o'zbek tarixshunosligi esa diplomatik institutlarni milliy davlatchilik



evolyutsiyasi doirasida tahlil qilishga intilmoqda.

Muhammad Shayboniyxon shaxsiyati va uning Movarounnahr tarixidagi o'rnini manbalarda murakkab siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq holda yoritiladi. Shayboniyxon temuriylar hukmronligi zaiflashgan davrda siyosiy maydonga chiqib, qisqa muddat ichida Movarounnahr hududida markazlashgan hokimiyatni shakllantirishga muvaffaq bo'lgan. U o'z harbiy yurishlarida nafaqat kuch ishlatish, balki diplomatik muzokaralar va mahalliy zodagonlar bilan kelishuv siyosatini ham qo'llagan.

Manbalarda uning Samarqand va Buxoro uchun olib borgan kurashlari, temuriy hukmdorlar bilan siyosiy raqobati hamda hududiy birlashuv jarayonidagi strategik qarorlari batafsil bayon etiladi. Ayniqsa, Shayboniyxonning davlat boshqaruvida markaziy hokimiyatni mustahkamlashga qaratilgan choralari, soliq tizimini tartibga solish va harbiy tuzilmani qayta tashkil etish faoliyati alohida ta'kidlanadi. Bu jarayonlar Movarounnahrda yangi sulolaviy bosqichning boshlanishiga zamin yaratgan [2.22-27].

Shu jihatdan, Shayboniyxon faoliyati nafaqat harbiy g'alabalar bilan, balki davlat qurilishi va siyosiy institutlar evolyutsiyasi bilan ham xarakterlanadi. Uning olib borgan siyosati keyingi asrlardagi o'zbek davlatchiligi taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Muhammad Shayboniyxon faoliyatini tahlil qilish jarayonida uning harbiy

salohiyati bilan bir qatorda, siyosiy strateg sifatidagi qobiliyati ham yaqqol namoyon bo'ladi. U Dashti Qipchoq hududidagi qabilaviy kuchlarni birlashtirib, markazlashgan harbiy-siyosiy tuzilma yaratishga erishgan. Movarounnahr hududiga yurishlar davomida u temuriylar o'rtasidagi ichki nizolardan mohirona foydalangan hamda qisqa vaqt ichida Samarqand va Buxoro kabi yirik siyosiy markazlarni qo'lga kiritgan. Manbalarda Shayboniyxonning davlat boshqaruvida shariat qoidalariga tayanishi, mahalliy amaldorlar bilan murosali siyosat yuritishi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga intilgani qayd etiladi. Ayniqsa, u o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida harbiy tizimni qayta tashkil etgan, sodiq amirlar qatlamini shakllantirgan va strategik hududlarda mustahkam tayanch nuqtalarini yaratgan [2.22-27].

Shuningdek, Shayboniyxon faoliyati Movarounnahrda temuriylar davrining yakunlanishi va yangi sulola hukmronligining boshlanishi bilan tarixiy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon siyosiy kuchlar muvozanatini tubdan o'zgartirib, hududda yangi davlatchilik an'analarining shakllanishiga zamin yaratgan.

Xulosa. Muhammad Shayboniyxon faoliyati Movarounnahr tarixida siyosiy transformatsiya davrini boshlab bergan muhim bosqich sifatida baholanadi. U temuriylar davrida zaiflashgan markaziy hokimiyat o'rnida yangi sulolaviy boshqaruv tizimini shakllantirib, hududiy yaxlitlikni tiklashga erishdi.



Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan harbiy yurishlar oddiy hududiy ekspansiya emas, balki siyosiy ustuvorlikni ta'minlash va markazlashgan davlat asoslarini mustahkamlashga qaratilgan strategik harakatlar edi.

Uning faoliyati natijasida Movarounnahrda siyosiy kuchlar muvozanati o'zgardi, yangi elita qatlamlari shakllandi hamda davlat boshqaruvi tizimida qat'iy intizom va markaziy nazorat kuchaydi.

Shayboniyxon davrida boshlangan boshqaruv tamoyillari keyingi o'zbek xonliklari siyosiy tizimining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bois, Shayboniyxon shaxsini faqat harbiy sarkarda sifatida emas, balki davlat qurilishi jarayonida muhim rol o'ynagan siyosiy arbob sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Uning tarixiy merosi Movarounnahrda yangi davlatchilik bosqichining boshlanishi bilan bevosita bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xayrullayev M. (tuz.). O'zbek diplomatiyasi tarixidan. – Toshkent, JIDU, 2003.
2. Ma'naviyat yulduzlari. Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1999; Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) //saviya.uz.
3. Rahmatova S., Qurbonov H. Buxoro guzarlari tarixidan lavhalar. – Бухоро. 1995.
4. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Тошкент Г'афур Г'улом номидаги адабиёт ва сан'ат нашриёти. 1990
5. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-jild, Toshkent, Sharq, 1998.
6. Kuzikulov I. Qo'qon xonligi tarixi. – Toshkent: [nashriyot], [yil]. 88–96-betlar.(Qo'qon xonligining tashkil topishi va boshqaruv tizimi tahlili asosida)
7. Муҳаммаджонов А.Р., Не'матов Т. Бухоро ва Хеванинг Россиуа билан муносабатлари тарихига доир ба'зи манбалар. Тошкент. Фан. 1967.
8. Ilhomov Z.A. O'zbekiston tarixi (XVI-XX asr boshlari). Toshkent: "Navro'z" nashriyoti, 2021. .
9. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: «Sharq», 2018.